

Toshkent City ni qanday qilib Mintaqadagi Xalqaro Arbitraj Markaziga Aylantirish mumkin?

~How to change the Tashkent City to the regional International Arbitration Hub? ~

*Alisher Umirdinov*<sup>1</sup>

*Husain Radjapov*<sup>2</sup>

Toshkent O'rta Osiyo mintasiqadagi eng yirik va aholisi eng ko'p shahar bo'lib, bu yerda 3 millionga yaqin kishi istiqomat qiladi. Poytaxtimiz haqli ravishda Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi maqomiga da'vogarlik qiladi. O'zbekiston Hukumati haqli ravishda shaharni butkul o'zgartirish va uni obro'sini yana ham oshirish maqsadida Toshkent City kabi multi-milliard loyihani boshlab berdi. Unga ko'ra, 2022 yilga borib bitishi lozim bo'lgan zamonaviy mitti shaharchada turli binolar qad ko'tarib, Toshkentning biznes markaz sifatidagi obro'sining oshishiga xizmat qiladi. Biznesning rivoji uchun infratuzilmaning muhimligini inobatga olsak, yuqoridagi gapga shubha qilmasa ham boladi.

Endi esa bir-ikki savollar bilan mavzuga kirsak: Toshkent Cityga qanday biznes qiluvchi kompaniyalar kirib keladi? Albatta yurtimizning tabiiy boyligi ko'pligini hisobga olsak, neft va gaz sohasi, konchilik tizimidagi xalqaro kompaniyalarni; aholimiz ko'pligini hisobga olganda esa turli tuman mahsulot ishlab chiqaruvchilarning kirib kelishini taxmin qilishimiz mumkin. Bizningcha, bularning o'zigina Toshkent City uchun aslo etarli emas. Keyingi paytda ko'pchilik tomonidan unitilayotgan holat, bizningcha, Toshkent City ning yuksak xizmatlar korsatuvchi shahar sifatidagi rolidir.

Albatta xizmat ko'rsatish sohasi tilga olinishi hamonoq, ko'pchilik informatsion-kommunikatsiya texnologiyalari (IKT) ni o'ylaydi, va ular ma'lum darajada haqlilar. Biroq, hamma narsa ham hozir IKT bilan hal etilmaydi va IKT qilolmaydigan ishlar hali nihoyat darajada ko'p. E'tiboringizni qaratmoqchi bo'lgan sohamiz bu- Toshkentning yuridik xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha mintaqaviy markaz holiga keltirishdir. Huquqiy davlatda ishlarning qonunlarga asosan yuritilishida yuridik xizmatning o'mi beqiyos. Ayniqsa, biznes-tadbirkorlik yuritish uchun layoqatli yursit-huquqshunosning bolishi juda ham muhim hisoblanadi. Ularning orasida yana ham muhimi, ***kompaniyalar orasidagi nizolarning hal etilishidir***. Chunki, inson bor joyda nizo bo'ladi, oldi-berdi mavjud joyda esa kelishmovchilik chiqadi. Bu tabiiy bir holatdir. Fuqarolik jamiyatida esa bunday nizolarning madaniy tarzda, sud yoki boshqa muqobil usullar orqali echish talab etiladi. Toshkent City uchun esa aynan halqaro arbitraj markazining barpo etilishi bo'lmasa bo'lmas holatdir.

---

<sup>1</sup> Nagoya Iqtisodiyot Universiteti (Yaponiya), Biznes Huquqi Fakulteti professori, PhD, 'Buyuk Kelajak' Ekspertlar kengashi a'zosi

<sup>2</sup> Kobe Universiteti Huquq fakulteti doktoranti

Xalqaro arbitraj deganda, davlat sudlariga muqobil tarzda kompaniyalar yoki davlat va kompaniyalar o'rtasidagi nizolarni hal etuvchi hakamlilik sudlari tushuniladi. Bizda ham 2006 yildagi Hakamlilik Sudlari to'grisidagi Qonun asosida bir necha yuzlab hakamlilik sudlari tuzildi va ularning ko'pchiligi hozirda o'z faoliyatlarini yuritmoqda. Savol tug'iladi: ***nega davlatimizning iqtisodiy sudlari bo'la turib boshqa yangi shunday arbitraj institutini barpo etish zarur?*** Sababi, (1) arbitraj jarayoni tez va oson bolib, xarajati ham oz; (2) arbitraj jarayonida faqat taraflar va ularning vakillari ishtirok etib, taraflarning shaxsiy va tijorat sirlari saqlanishiga olib keladi; (3) yakka yoki uch kishidan iborat arbitrlar guruhi tuzulib, ular har bir nizoning faktlariga kora ishni moslashuvchan tarzda yuritishlari taraflarga katta qulaylik tugdiradi; (4) nafaqat huquqshunoslar, balki ma'lum bir soha boyicha chuqur mutaxassislikka erishgan insonlarni (quruvchilik, farmasevtika kabi) jalb etish orqali murakkab faktli nizolarni tez echilishiga erishish mumkin; (5) halqaro arbitrajda davlat sudi nazorati mavjud bo'lmagani sababli, unda xalqaro yoki kollizion muammolarni ham ko'rish mumkin; (6) arbitraj sudlaridagi maxfiylikka amal qilish (confidentiality) maksimal darajada saqlanadi. Hammadan ham muhimi, mahalliy tadbirkorlarimiz uzoq o'lkalarga borib katta miqdordagi moliyaviy harajat qilmasdan chet el firmalari bilan boladigan nizolarni Toshkentda hal qilish imkoniga ega bo'lishadi. Agar bunday markazni o'zimizda tashkil qilmasak, unda mahalliy firmalarimiz chet ellik firmalar bilan tuziladigan shartnomada nizo hal etish joyini o'sha mamlakat (misol uchun, Germaniya, Xitoy yoki Ukraina) deb belgilashga majbur bo'lishadi.

Boshqa tomondan, xalqaro arbitraj tajribasining ichki milliy qonunchiligimizga ijobiy ta'sirini ham qayd etish joiz. Chet el elementi qorishgan nizoning yurtimizdagi xalqaro arbitraj institut(lar)i tomonidan ko'rib chiqilishi arbitrlarimizdagi qiyosiy huquqshunoslik bo'yicha bilim va tajribani orttiradi. Prosedural huquqning ham taraqqiy etish ehtimoli bor. Chunki, arbitraj asosan taraflarning 'tortishuvchanlik' prinsipiga asoslangan bo'lib, bu holatda anglo-sakson tizimining kontinental huquq tizimiga ijobiy ta'sir etilishi kuzatiladi. Bundan tashqari, sudyalar mustaqilligi muammo sifatida ko'tarilayotgan bir paytda, huquqshunoslar arbitrlilik qilish orqali mustaqil hakam sifatida faoliyat yuritish malakasiga ega bolsihadi.

***O'zi bunday loyiha zarurmi? Albatta zarur.*** Chunki, mustaqilligimizning 27 yillik yili davomida xususiy va davlat korxonalari chet ellarda juda qimmat turuvchi arbitrajlarda nizolarni hal etish uchun qatnashishdi, qatnashishmoqda ham va ularning bir necha o'n million AQSH dollari to'laganligi hech kimga sir ham emas. Shundoq ekan, biz o'zimizda halqaro nizolarni ko'ra oladigan, ularni o'ta holis shaklda hal etadigan, o'zining mustaqil reglamenti, turli millatlardan tashkil topgan kuchli arbitrlar jamoasi va eng zamonaviy bino va texnologiyalarga ega bolgan Xalqaro Arbitraj Markazini qurishga majburmiz!

Boshqa tomondan, 2006 yilgi Qonun amaliyotga tadbiiq etilganidan boshlab mana oradan 10 yildan ziyod vaqt o'tdi. O'zbekistonlik arbitrlar, advokatlar va shirkatlar u haqda ancha muncha tajriba hosil qilishdi. Endi esa qo'rqmasdan, xalqaro arbitrajni yurtimizda tashkil etish vaqti etib keldi. Buning sabablaridan biri, dunyoning juda ko'p davlatlari, hatto qo'shnimiz bo'lgan Qozogiston Respublikasi ham halqaro arbitraj to'grisidagi qonunni allaqachon qabul qilib bo'lgan. Ikkinchi sababi esa, xalqaro arbitrajning yurtimizga kirib kelishi ish izlab yurgan yuristlarimiz uchun qo'shimcha

daromad manbai hisoblanib, yuristlar orasidagi ishsizlikning kamayishiga, ularning saviyasi yana ham ortishiga sabab boladi. Birgina misol, Angliyaning yillik yuridik xizmatlari bahosi mamlakat yalpi milliy mahsuloti ichida 25.7 milliard funt streling deb baholanadi.<sup>3</sup> Tasavvur qila olasizmi: Angliyalik yuristlar birgina yuridik xizmatlar uchun 25.7 milliard ishlab oladi, uning ichida arbitraj va nizolarni boshqa yo'llar bilan hal etish salmoqli o'rin egallashiga shubham yo'q. Shunday ekan, nega Toshkentda hech bo'lmasa mintaqamizdagi halqaro tijorat nizolarini hal etuvchi markazni tashkil qilmasligimiz kerak?!

Unda 2006 yilgi Xakamlik Sudlari Qonuni bilan shunday muammolarni hal etsak bo'lmaydimi? Bundan tashqari, Savdo-Sanoat Palatasi qoshida Xalqaro Tijorat Arbitraji Sudi ham tuzilgan. Ushbu mavjud huquqiy institutlar bilan hal etsak bo'lmaydimi? Yo'q bo'lmaydi. Sababi esa juda oddiy: 2006 yilgi Qonun ichki arbitraj nizolarini hal etish qabul qilingan bo'lib, yurtimizdan tashqarida yuz bergan nizolarni hal etish masalasini o'z ichiga olmagan, yarimchala qonundir. Shuningek, 2006 yilgi qonun chet ellik huquqshunoslarning yurtimizga kelib arbitrlk faoliyati bilan shugullanishiga ruxsat bermaydi. Vaholanki, Toshkent City brendini kuchaytirish uchun chet ellardan nomi chiqqan kuchli arbitrlarni kezi kelganda yurtimizga jalb qilishda katta foyda bor. Ushbu muammolarning fundamental yechimi sifatida **hozirda Parlamentimizda Halqaro Arbitraj to'grisidagi Qonun loyihasi muhokama qilinmoqda** va umid qilamizki ushbu qonun yurtimiz va mintaqamizda arbitraj sohasida inqilob yasab, Toshkentimizni haqiqiy manoda arbitraj markaziga aylanishiga yordam beradi.

Aslida, hozirda juda ko'p shaharlar shunday markaz bo'lishga intilmoqda- Dehli, Moskva, Astana, Shanxai, Dubai, Qohira, Istanbul va hokazo. Shu sababli, raqobat muhiti anchagina shiddatli. Albatta Toshkentning Singapur, GongKong, Jeneva, London yoki Parij kabi arbitraj sohasidagi global markazlar bilan raqobat qilishi va u yerdagi multi-milliard nizolarni aynan Toshkent shahridagi xalqaro arbitraj markaziga olib kelinishiga erishish – biroz hayoliy masala bo'ladi. Chunki, arbitraj joyining tayinlanishida taraf hisoblangan shirkatlarning biznes yuritish joylari va ularning hududiy yoki asosiy ofislari joylashgan joy ham katta rol o'ynaydi.<sup>4</sup> Shunga qaramay, Toshkent shahri eng kamida O'rta Osiyo yoki MDH davlatlari orasida arbitraj markazi maqomiga da'vo qilishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud deb hisoblaymiz.

***Toshkentda rostdan ham bunday imkoniyat mavjudmi?*** Toshkentda bunday imkoniyat bor. Birinchidan, yaxshi shakllangan xususiy sektordagi yuristlarimiz bor. Chunki, arbitraj sohasining gullab-yashnashi uchun o'sha sohani yurituchi malakali kadrlar kerak. Bizda esa bunday kadrlar

---

<sup>3</sup> THE LAW SOCIETY OF ENGLAND AND WALES, ECONOMIC VALUE OF THE LEGAL SERVICES SECTOR, March 2016

<https://www.lawsociety.org.uk/news/documents/legal-sector-economic-value-final-march-2016/> london legal service amount one year

<sup>4</sup> Jonathan Choo, The Rise and Rise of Singapore: Singapore as a Preferred Venue for International Arbitration, June 15, 2015

<https://singaporeinternationalarbitration.com/2015/06/15/the-rise-and-rise-of-singapore-singapore-as-a-preferred-venue-for-international-arbitration/>

(ideal holatda bo'lmasa ham) bor. Ikkinchidan, Toshkentning hududiy joylashuvi diqqatga sazovordir. U mintaqadagi kuchli iqtisodga ega bo'lgan Ostana, Moskva, Shanxai, Istanbul kabi shaharlarning o'rtasida joylashgan bo'lib, Markaziy Osiyoda eng tinch va infratuzilmasi ancha yaxshi rivojlangan shahar hisoblanadi. Uchinchidan, qo'shnilarimizning harakatchanligidan ham biroz o'rnatilgan olsak: Qozoqiston hukumati mana necha yildirki, Ostona shahrini Islomiy moliya markaziga aylantirish uchun jonini jabborga berib harakat qilayapti, uning uchun alohida qonunlar qabul qilib, chet eldan kuchli mutaxassislarni qo'rqmasdan jalb qilmoqda. Shunday ekan, fursatdan foydalanib Toshkent City ni halqaro arbitraj maydoniga aylantirishga biz ham bel bog'lashimiz kerak.

Boshqa tomondan Xitoyning 21-asr g'oyasi bo'lgan **"Bir Kamar Bir Yo'l" (One Belt, One Road)** loyihasi ham Toshkent uchun katta tarixiy imkoniyatni vujudga keltirmoqda. Xitoyning "Bir Kamar Bir Yo'l" loyihasini butun dunyo yuristlari intizorlik bilan kutayapti. O'zbekiston ham shu loyihani bir bo'lagiga aylanmoqda. Bu loyihani amalga oshishi yuristlar uchun yangi nizolar va ko'plab arbitraj keyslar degani- arbitraj ishlarida esa juda katta pullar aylanadi. Misol, bir nizo bo'yicha kattaroq kompaniyaga huquqiy yordam xizmatini amalga oshirgan yuridik firma yuristi sifatida ishlagan, hozirda arbitraj sudyasi professor Robert S. Penning ta'kidlashicha, ikki yil davomida oyiga 500,000 dollardan olib turgan ekan. Ha yarim million dollar, OYIGA! Ikki yilda- bu 6 million dollar degani. Qisqasi arbitraj ishlari yuristlar uchun juda daromadli. Professorning gapiga ko'ra, "Bir Kamar Bir Yo'l" bilan bog'liq nizolar hal qilishdan keladigan asosiy foyda-ulushni GongKong va Singapur arbitraj sudlari olish ehtimoli yuqori ekan. Chunki ular Xitoyning iqtisodiy va siyosiy ta'siridan uzoq va neytral pozitsiyaga ega. Ya'ni ularga nisbatan ishonch yuqori.

### ***O'zbekiston ham bu ulushga da'vogarlik qilsa bo'ladimi?***

Bizda ham arbitraj sudlari rivojlanishi uchun huquqiy asoslar tayyorlanayapti. Ishonamizki, O'zbekistonda xalqaro keyslarni hal qilaoladigan yuqori toifali arbitraj sudyalari ham topiladi. Geografik jihatdan ham O'zbekiston Gong Kong yoki Singapourgacha qaraganda "Bir Kamar Bir Yo'l" loyihasida markazroqda joylashgan bo'lib, sud ishtirokchilari uchun qulay va yaqinroq. Undan tashqari, O'zbekiston halqaro siyosatda ancha mustaqil o'z pozitsiyasiga ega davlat ekanligi ma'lumdur. Bu esa o'z navbatida, halqaro arbitraj nizolarda O'zbekistonning halqaro arbitrajlar sudlarining xolis bo'laolishiga qo'shimcha ishonch uyg'otadi.

O'zbekistonda xalqaro arbitrajga yaxshiroq e'tibor berilsa, kelajakda yuristlarimiz uchun katta daromad manbaiga aylanishi mumkin. Mashhur yuridik firma sifatida nom qozongan White&Case ning yurtimizga kelishi ham bu ishning amalga oshishiga ancha katta turtki bo'ladi va shu bilan birga, yurtimizdagi mahalliy yuridik firmalar uchun xalqaro nizolarni hal etish anchagina arzonga tushadi. Eng so'nggisi esa, talabalarimiz uchun turli tuman murakkab tijorat nizolarini hal etuvchi yuridik firmalarda malaka oshirishni Toshkentning o'zida turib amalga oshirish imkonini taqdim etgan bo'lamiz. Ular albatta o'zlarining kelajakdagi karerolari uchun London, Parij, yoki Gong Kongga borib katta xarajatlarga tushishlariga hojat qolmaydi. Bu ham o'z navbatida yuridik ta'lim sifatiga ta'sir etadi.

Shunday ekan, Toshkent Cityni xalqaro arbitraj markaziga aylantirish uchun nimalar qilish lozim?

(1) **Xalqaro Arbitraj to'g'risidagi qonunni xalqaro me'yorlarga mos holda qabul qilishimiz lozim.** Uni muhokama va qabul etish jarayonida Singapur, GongKong, Fransiya va Dubai kabi muvaffaqiyatga erishgan davlat va shaharlarning tajribasini obdon ko'zdan kechirish tavsiya qilinadi:

- Bu sohaning muhimligini tushungan holda, Xitoy Xalq Respublikasining Oliy Sudi 2018 yilning Iyun oyida Xitoyning ikkita katta viloyatida Xalqaro Tijorat Sudini tashkil etdi.<sup>5</sup> Eng muhimi, Xitoy Oliy Sudi ushbu sudlarga Amerika va Angliya kabi davlatlarda o'qib kelgan, malakali sudyalarni sudya sifatida tayinladi.<sup>6</sup> Maqsad esa 'Bir Kamar Bir Yol' doirasida vujudga kelayotgan nizolarni Xitoydagi ushbu institutlarda ko'rishishga erishish orqali Xitoyni xalqaro tijorat nizolarini hal etishdagi xalqaro mavqeini yuksaltirishdan iboratdir.
- 2018 yilning boshida esa Hindiston hukumati parlamentga Yangi Dehli Xalqaro Arbitraj Markazi Qonunini taqdim etdi va muhimi, ushbu markazni 'davlat darajasidagi muhim institut (institute of national importance) maqomini berdi.<sup>7</sup> Maqsad esa GongKong va Singapurga borib nizolarini hal etayotgan Hindistonlik va chet ellik ishbiarmonlarni Yangi Dehli'dagi markaz xizmatidan foydalanishga jalb etish.
- 2008 yilda esa Dubai Xalqaro Moliya Markazi Angliyadagi London Xalqaro Arbitraj Markazi bilan qo'shma markazni tashkil etdi va uning asosi sifatida 2008 yilda yangilangan UNCITRAL ning Xalqaro Arbitraj to'g'risidagi model qonunini qabul qildi.<sup>8</sup> Maqsad esa, Dubaini xalqaro tijorat arbitraj va mediatsiya bo'yicha mintaqaviy habga aylantirish.

(2) Toshkentdagi Xalqaro Arbitraj Markazi uchun poytaxtimizdagi eng zamonaviy va qulay joydan bino ajratilishi, doimiy sekretarlikka va taraflarning muzokara va muhokama o'tkaza olishlari uchun xonalar yetarlicha ajratilishi lozim. Bundan tashqari, viloyatlar va chet el mamlakatlaridan turib onlayn tarzda videokonferensiya o'tkaza olish uchun eng so'nggi rusumdagi IKT taqdim etilishi juda zarur. Bu holat taraflar uchun xarajatlarni katta miqdorda tejalishiga olib keladi:

- Hukumat nizolarni muqobil hal etishga ixtisoslashgan institutlarni moliyaviy tomondan qo'llab quvvatlashi lozim. Bunga Avstraliya hukumatining yetarli yordamini ololmagan arbitraj institutlarining qanday qilib Singapurga arbitraj hab sifatida yutqazib qo'yganligi yorqin misol bo'la oladi.<sup>9</sup> Qiziqarlisi, bunday inqirozni bugungi kunda Yaponiya ham boshdan kechirmoqda, va juda kech bo'lsa ham bu yildan boshlab yapon hukumati ham xalqaro arbitraj markazini Tokyoda ochish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishni boshladi.

---

<sup>5</sup> HUO YAN and CAO YIN, China unveils courts to resolve intl commercial disputes, chinadaily.com.cn | Updated: 2018-06-29 [http://www.chinadaily.com.cn/a/201806/29/WS5b361e62a3103349141dfd38\\_1.html](http://www.chinadaily.com.cn/a/201806/29/WS5b361e62a3103349141dfd38_1.html)

<sup>6</sup> China International Commercial Court, Judges, <http://cicc.court.gov.cn/html/1/219/index.html>

<sup>7</sup> Binsy Susan, Neha Sharma, 'New Delhi International Arbitration Centre: Building India into a Global Arbitration Hub', Kluwer Arbitration Blog, May 4 2018, <http://arbitrationblog.kluwerarbitration.com/2018/05/04/new-delhi-international-arbitration-centre-building-india-global-arbitration-hub/>

<sup>8</sup> Qarang, <http://www.difc-lcia.org/overview.aspx>

<sup>9</sup> Felicity Nelson, Govt backing needed to make Aus an arbitration hub: SC, 30 JULY 2015

<https://www.lawyersweekly.com.au/news/16906-govt-backing-needed-to-make-aus-arbitration-hub>

(3) Chet ellik huquqshunoslarni yurtimizda yuridik xizmat ko'rsata olishi uchun ularga soliq imtiyozlari berilishi va viza tizimi soddalashtirilishi lozim. Sababi, bir taraf agar chet MDH davlatlaridan boshqa mamlakatdan kelgan bo'lsa, ko'pincha ingliz tilida muomala qilishni afzal ko'rishi mumkin. Bunday holatlarda esa, ingliz tilini mukammal biluvchi va arbitraj sohasida yetarli tajribaga ega, yoki yana ham muhimrog'i, Toshkentning obro'sini ko'taruvchi dunyoga tanilgan arbitr bo'lishi talab etiladi. Singapur davlati tajribasi bunga yorqin misol bo'la oladi:

- Bazi bir shartlar asosida, Singapur 2002 yildan to 2020 yilgacha bo'lgan muddatda rezident bo'lmagan (Singapurda doimiy yashamaydigan) arbitr(hakam)lar tomonidan topilgan daromadni soliqqa tortilmaydi. Ushbu holat Singapurning xalqaro arbitrajga oid qonunchiligi asosida arbitr sifatida faoliyat ko'rsatuvchi barcha no-rezidentlarga tadbir etiladi.
- *Arbitraj xizmati ko'rsatuvchilar uchun ishlash vizasining istisno qilinishi: Bunda, arbitraj xizmatini ko'rsatuvchi chet ellik huquqshunos yoki mutaxassis 90 kungacha Singapurda ishlash vizasiz qolishi mumkin. Yagona talab etiladigan holat bu - Mehnat vazirligiga e-xabar jo'natish orqali 'Qisqa muddatli tashrif ruxsati' olish xolos.*
- *Singapur, GongKong, Parij yoki Londondagi global markazlar bilan birgalikda hamkorlik aloqalarini o'rnatish va u erdagi kuchli mutaxassislarni vaqti-vaqti bilan yurtimizga taklif etib, konferensiya va simpoziumlar uyushtirish orqali arbitraj institutini yoyishga erishish.*

(4) Xalqaro Arbitraj va mahalliy sudlar orasida do'stona muhitni ("Arbitration friendliness") shakllantirish talab etiladi. Buni esa yurtimizning Oliy Sudi va Adliya Vazirligi yordamisiz amalga oshirish amri mahol. Arbitraj uchun do'stona muhit agar o'sha davlatning mahalliy sudlari arbitraj bitimining haqqoniyligini qo'llab-quvvatlab, chet el yoki yurtimizdagi arbitraj institutlari tomonidan chiqarilgan qarorlarning ijrosini tushunarsiz mavhum sabablar bilan rad etmasagina ro'yobga chiqarish mumkin. Uning uchun esa avvalo sudyalimizning arbitrajga nisbatan qarashlarini o'zgartirishga to'g'ri keladi. Agar ular arbitraj institutlarini o'zlariga dushman emas, balki tobora o'sib borayotgan nizolarni yechishning muqobil turi va o'z ish yuklarini yengillatuvchi yordamchi institut sifatida ko'rsalar, har ikki tomon uchun ajoyib natija yuzaga keladi. Parij, Jeneva, London, Gong Kong va Singapurdagi xalqaro markazlarga nega yiliga yuzlab yoki minglab o'ta qimmat nizoli ishlar kelishining asosiy sababi ham, u yerdagi mahalliy sudlarning xalqaro arbitraj ishlariga nisbatan o'ta iliq munosabat (pro-enforcement regime) da bo'lishi yotadi.<sup>10</sup> Misol uchun Singapurdagi sudlar chet el arbitraj institutlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni ijro etishni bekor qilish yoki rad etish bo'yicha mumkin qadar qaror chiqarishmaydi. Bu ham yetmagandek, iloji boricha arbitraj bitimining haqqoniyligini tan olish chorasini ko'rishadi. Yurtimizda ham shunday holatning yurtimizda yuzaga kelishi uchun quyidagilar taklif qilinadi:

- **Ommaviy tartib:** Nyu-York Konvensiyasi 5- modda, 2 qismidagi 'ommaviy tartib'(public policy) nima ekanligi bo'yicha Oliy Sud aniq sharx berishi va shu orqali yurtimizga investitsiya qilmoqchi bo'lgan yoki bolmasam yurtimizdagi firmalar bilan ishlamoqchi bo'lgan chet ellik hamkorlarda respublikamiz sudlari va ularning arbitraj qarorlariga nisbatan do'stona kayfiyatda ekanliklariga oid ishonch tuyg'usini uyg'otishlari lozim.

---

10

<http://www.siac.org.sg/m/2013-09-18-01-57-20/2013-09-22-00-27-02/articles/198-singapore-the-hub-of-arbitration-in-asia>

- **Tanlangan huquq:** Yangi qabul qilinadigan qonunda taraflar uchun keng erkinliklar berilishi, xususan, *tanlanadigan huquq (choice of law)* bo'yicha respublikamizdan boshqa davlat huquq tizimining tomonlar bitimi uchun erkin tanlanishiga erishish lozim. Shu bilan birga, yangi qabul qilinadigan qonun va mahalliy boshqa qonun normalari o'rtasidagi tushunmovchilik iloji boricha kamaytirilishiga erishish lozim.
- **Prosedura:** Katta arbitraj ishlarida faktlarni aniqlash uchun tabiiy ravishda juda kop hujjatlar taqdim etiladi. Agar bir tomon chet el mamlakatining rasmiy hujjatini ko'rsatsa, unda ushbu hujjat O'zbekiston hududida bo'lib o'tayotgan arbitraj uchun qonuniy kuchga ega bo'lishi uchun avvalo u hujjat notarial idoralarning rasmiylashtirishidan o'tishi va qonuniylashtirishi (legalizatsiya) lozim. Bu esa taraflarga juda katta xarajatlar qilishni talab etadi. Bu masalani ijobiy tarzda yechimi esa O'zbekistonning 'Chet el ommaviy hujjatlarini qonuniylashtirish talabani bekor qilishga oid 1961 yildagi Gaaga Konvensiyasiga (*Hague Convention of 5 October 1961 Abolishing the Requirement of Legalisation for Foreign Public Documents*) qo'shilishi talab etiladi. Aslida yurtimiz ushbu Konvensiyaga 2012 yildayoq qo'shilishgan. Biroq, ba'zi bir sabablarga ko'ra, Belgiya, Germaniya, Avstriya va Gretsiya kabi davlatlar bilan yurtimiz o'rtasida ushbu bitim kuchga kirmagan.<sup>11</sup> Yurtimizga ko'p investitsiyalar ushbu davlatlar orqali kirishni inobatga olgan holda bitimni ushbu davlatlar bilan ham kuchga kirgizish taklif etiladi.
- **Shaffoflik:** Katta miqdordagi nizolarni yurtimizdagi xalqaro arbitraj institutlariga ko'rib chiqilishiga erishish uchun mahalliy sudlarimiz, to'g'rirog'i, yuqori instansiya sudlari tomonidan chiqarilayotgan sud qarorlarining shaffofligi bo'lmasa-bo'lmas ahamiyatga ega. Sababi esa oddiy – chet el va O'zbekistondagi arbitraj institutlari tomonidan chiqarilayotgan qarorlarning mahalliy sudlar tomonidan majburiy ijrosi qay darajada taminlanayotganligini bilish uchun. Sud qarorlari bankini e'lon qilmas ekanmiz, chet ellik investorlarning yurtimizdagi sud tizimi bo'yicha gumonlarini yo'qota olmaymiz.

---

<sup>11</sup> <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/status-table/notifications/?csid=1113&disp=type>